

**A. Axmedov**

Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

## **AFORIZMLARNING TILSHUNOSLIKDAGI TUTGAN O'RNI**

Sivilizatsiya paremiologiyada – ma'lum bir tilning bevosita konseptual sohasini tashkil etadigan aforizmlar to'plamida o'zini namoyon qiladi. Tadqiqotning turli yo'nalishlariga asoslanib, ko'pgina olimlar frazeologik birliklarni fanlararo o'rganish lozimligini aytadilar. Frazeologizmlar tilshunoslik va tilga oid bo'lmagan fanlar doirasida o'rganiladi. Albatta, aforizm tilshunoslik nuqtai nazaridan ham tahlil qilingan. Ilmiy paradigmaning o'zgarishi bilan bir qatorda ushbu hodisani o'rganishga yondashuvlar ham o'zgargan. Bundan tashqari, aforizmning noaniq tabiati, tilshunoslarga aforizmni turli jihatdan o'rganishga imkon beradi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, aforizm – bu muallif tomonidan yozilgan qisqa va esda qolarli shaklda bitilgan o'ziga xos fikr. Aforizm asl o'ziga xos tafakkur ekanligi uni umumiy fikrga qarama-qarshi qo'yadi. Shuning uchun aforizmlarning biroz paradoksal, noyob yoki g'ayrioddiy tabiati, tabiatan kontekstual bo'lsa-da, ma'lum bir tarixiy davr va jug'rofiy hudud uchun yaratilganligi sababli, aforizm o'z boyligini boshqa avlodlarga o'tkaza oladi.

Struktur tilshunoslikning gullagan davrida olimlar aforizmlarning leksik, grammatik, stilistik xususiyatlarini o'rganib, ularni mavzular bo'yicha tasnifladilar. Aforizmlarning semantik-sintaktik modellarini yaratdilar, aforizmlarning janri va lingvistik xususiyatlarini o'rgandilar.

Ushbu tadqiqotda aforizmlarga murakkab va o'ziga xos kognitiv hodisa sifatida qaraladi. Aforizmlarda insoniyatning umumiy bilimlari aks ettiriladi, hatto eng mashhur iboralarda ham bu fikr ilgari suriladi.

Masalan, o'zbek tilida:

1. Boshiga ish tushgan odamni shilish – o'likni kafanini yechib olishday gap. (Abdulla Qahhor).
2. Har qanday ishni boshlashdan avval Allohning rizoligini o'yla, aks holda qilgan ishlaringning hammasi behuda bo'lib, zoya ketadi. (Abdulqosim Zamaxshariy).
3. Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun 3 narsa kerak, diqqat, intizom va harakat. (Jaloliddin Rumiy).
4. Ilm – narsalarni inson aqli yordami bilan o'rganishlikdir. (Abu Ali ibn Sino).
5. Har bir insonning qadr-qimmatini o'z ishini qoyil qilib bajarishda. (Abu Rayhon Beruniy)<sup>1</sup>.

Ingliz tilida:

1. With great power comes great responsibility. (“Spiderman” – “O'rgimchak odam” filmidan).
2. Tomorrow is another day! (“Gone with the wind” filmidan).

<sup>1</sup> <https://hikmatlar.uz>

3. Behind every great man is a woman rolling her eyes. (Jim Carrey).
4. Be the change that you wish to see in the world. Mahatma Gandhi.
5. Keep your friends close, but your enemies closer. "The Godfather" filmidan<sup>2</sup>.

Ko‘rinadiki, o‘zbeklar asosan, mumtoz matnlarga suyansalar, inglizcha aforizmlar zamonaviy matnlarga ham birdek murojaat qiladilar. Bizningcha, zamonaviy madaniyat shakllari – kino, OAVlarda yevropa an‘analari yetakchiligi bunga sabab. Aforizm – bu dunyoning umumiy va individual bilimlarining kesishish sohasi, hayotiy haqiqatlarga diqqatni jalb qilish imkonini beradigan individual ravishda yaratilgan shakl.

Aforizmning o‘ziga xos belgilari ta’kidlangan. Aforizm til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligini aniq ko‘rsatib beradi, bu tilshunoslar va faylasuflar tomonidan azaliy muhokama qilinadigan ulardan birining ustuvorligini aniqlash muammosini aks ettiradi. Aforizmlar fikrlash shaklidagi o‘ziga xoslikni va ifoda usulining yangiligini talab qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – С. 241.
2. Козырева Ю. В. Английская идиоматика на межъязыковом уровне // Журнал САХГУ, 2004, № 5 (journal. sakhgu.ru/archive/2004-05-6).
3. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 274 б.
4. Кацюба Л.Б. Определение паремии (лингвистический аспект дефиниции) // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия Лингвистика. – 2013. - № 1. – Т. 10. – С. 65.
5. Чиженко А. Что такое паремии и как правильно их воспринимать // [Электронный ресурс] Режим доступа <https://pravoslavie.ru/98938.html> Дата доступа 21.01.2019
6. Tursunova N.F. Turli tizimli tillardagi milliy-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi frazeologizlar va ularning lingvokulturologik tahlili: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Andijon, 2011. – B. 114.
7. Longman dictionary. Sixth edition. 2007. – P. 449.
8. Azimjon, A., & Avazbek, O. (2023). ACTIVITIES OF INTERNATIONAL AMBASSADORS IN UZBEKISTAN. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 23(1), 39-43.

---

<sup>2</sup>[https://www.goodreads.com/author/5810891.Mahatma\\_Gandhi](https://www.goodreads.com/author/5810891.Mahatma_Gandhi);  
<http://smatblogger.com/aphorism-examples>